

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'shim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60211400 – Vokal san’ati (An’anaviy xonandalik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil “21” 08 dagi 362-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi</i>	4
1.1.	<i>Qo‘llanish sohasi</i>	4
1.1.1.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.....</i>	4
1.1.2.	<i>Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....</i>	4
1.2.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i>	4
1.2.1.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ijodiy sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob’ektlari.....</i>	4
1.2.3.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</i>	6
2.1.	<i>Umumi kompetensiyalar.....</i>	6
2.2.	<i>Kasbiy kompetensiyalar.....</i>	6
2.3.	<i>Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</i>	7
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya.....</i>	7
2.3.2.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....</i>	8
2.3.3.	<i>60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....</i>	8
	<i>Bibliografik ma’lumotlar</i>	9
	<i>Kelishuv varag‘i</i>	10

1. 60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat daturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60211400 – *Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:

–mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

–ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

–bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

–ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

–oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

–oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

–kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

–oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi:

1.2.1. 60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan, ta’lim va san’at sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, san’at va madaniyat muassasalarida, davlat va mahalliy boshqaruv organlarida, davlat korxona va tashkilotlarida, ta’lim muassasalarida, turli fondlar va loyihalarda hamda turli mulkchilik shaklidagi xalq ashulalari, maqom xonandasasi va maqom ijrochiligiga oid ishlar bilan bog‘liq tashkiliy-ijodiy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, san’at ta’lim sohasining tegishli yo‘nalishlari bilan bog‘liq kompleks masalalari mazmunini qamrab oladi.

1.2.2. 60211400 – Vokal san’ati (an’anaviy xonandalik) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari:

–san’at sohasidagi tegishli jarayonlar;

–ijodiy faoliyat jarayonlari;

–mualliflik huquqi himoyasiga tegishli qoidalar, san’at sohasining axborot va dasturiy ta’minoti;

–xalq ashulalari, o‘zbek bastakorlari asarlari, maqom ijrochiligi va ularning targ‘iboti;

–ijodiy g‘oyalarini loyihalash va amaliyotga tatbiq qilish jarayonlari;

–pedagogik faoliyat hamda o‘quv-tarbiya jarayoni.

1.2.3. 60211400 – Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ijodiy-ijrochilik;
 - professional ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus, mактабдан ташқари та'lim muassasalari hamda musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda pedagogik;
 - tashkiliy-boshqaruv;
 - ilmiy-tadqiqot faoliyati.

1.2.4. 60211400 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha baklavrlarning kasbiy vazifalari:

60211400 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lif yo'naliishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ijodiv-ijrochilik faoliyatida:

- maqomlar va mumtoz musiqiy asarlarni yuksak badiiy saviyada ijro etish bilan bog'liq ijodiy ishlarni olib borish;
 - maqomlar va mumtoz musiqiy asarlarni ijro etish ko'nikmalari va zamonaviy musiqiy ifodalash vositalarini egallah;
 - ijro etilayotgan maqomlar va mumtoz musiqiy asarlarning mazmuni, shakli va uslubini baholash;
 - katta va kichik jamoalarni badiiy rahbar sifatida boshqara olish;
 - turli xil jamoalarni biriktirgan holda xalq dosonlarining ijrosiga rahbarlik qila olish;
 - musiqiy asarlarning badiiy konsepsiyasini yaratib, teatr-konsert muassasalari, ansamblarda xonandalik qilish;
 - maqomlar va mumtoz musiqiy asarlarning mazmuni, shakli va uslubini tushunish;
 - ijrochilikda yuksak saviyadagi ovoz san'atini qo'llash;
 - jamoada kuylay olish *qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.*

Professional ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda:

- professional ta’lim, kasb-hunar, umumiy o’rta va o’rta maxsus, mактабдан ташқарி та’лим тизимининг иксисоликка мос та’лим муассасаларидаги тайяоргарлик ўналишида наазарда тутилган о’кув фанлари бо‘йича наазари, амалий ва якка (лаборатория) машғулотларини о‘тказиш;
 - замонавий ахборот-кommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandardart o’quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish usullarini ishlab chiqish va o‘tkazish;
 - o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish учун зарур bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirish;
 - o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish учун o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanishi;
 - mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;
 - o‘quv-tarbiyaviy, uslubiy va ilmiy-tadqiqiy ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va amalgamoshirish;
 - musiqa olami hodisalarini mustaqil anglash va ta’lim jarayoniga singdirish;
 - o‘quv jarayonini, o‘quv-uslubiy, ma’naviy-tarbiyaviy va ilmiy ishlarni tashkil etishning ilg‘or tajribalarini umumlashtirish va keng yoyish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ijodiy jarayonlarni tashkil etish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
 - ijodiy jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
 - informatsion texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy jarayonlarni monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
 - atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat havfsizligi talablariga mos kelishi borasida ijodiy jarayonlarni nazorat qilish;

- maqom ijrochilik ko'nikmalarini amaliyotga tadbiq qilish;
- ijodiy jarayonda sifatni boshqarish;
- maqom ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi maqomlarni qayta jlonlantirish ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda maqom ijrochiligi, O'zbek bastakorlari asarlari san'atiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- maqom ijrochiligi, O'zbek bastakorlari asarlari, musiqa san'atiga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;
- kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihibarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;
- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

2. 60211400 - Vokal san'ati (an'anaviy xonandalik) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- barqaror rivojlanish va media falsafa masalalarini kasbiy faoliyatda qo'llay olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamонавији ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, hamkorlik yozishmalari va elektron aloqalarni olib borish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- o'zbek maqom san'ati rivoji uchun ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, kasbga doir o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma va darsliklar yarata olish, o'zbek maqom san'atini ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlari orqali ko'plab mamlakatlarga keng targ'ib eta olish;
- maqom ansambli va boshqa jamoalarda faoliyat yuritayotgan vaqtida ta'lim jarayonida olgan barcha bilim va ko'nikmalardan unumli va sifatlari foydalana olish;
- insonlarning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan foydalana olish;
- maqomlar, mumtoz ashulalarni yakka xolda va xonandalar ansabli bilan hamnafaslik hamda jo'rovozlikda o'rganib ijro eta olish;
- maqom asoslari, maqom tarixi, ijrochilar chuqr bilimga ega bo'lishi va ilmiy nazariy izlanishlar olib borish;
- maqomlarda ko'p uchraydigan aruz vazni, mumtoz she'riyat poetikasini chuqr tahlil qila olish;
- fors tilini o'rganishi, nafaqat muloqot uchun balki maqomlardagi forsiy so'zlar va atamalarni talqin eta olishi;

–me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

–maqom xonandaligi bo'yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lган bilim, ko'nikma va malakalarini egallash va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olish;

–ijrochilik faoliyatida ijro etayotgan asarini ustozlarida olgan bilim, ko'nikma va malaksidan kelib chiqib, mukammal ijro eta olish;

–pedagogik faoliyati davomida sog'lom muhitni yarata olish, o'quvchilar bilan ijobiy muloqotni tashkil qila olish;

–axborot muhitida san'at sohasiga oid zarur, muhim, kerakli va foydali ma'lumotlarni izlash va bu ma'lumotlardan unumli va samarali foydalanish;

–ta'lism sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq qilish;

–madaniyat va san'at sohasidagi zamонавиу axborot tizimlaridan foydalangan holda ta'lism jarayonlariga oid turli usul va texnologiyalarni ta'lism jarayoni sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini hisobga olgan holda ishlab chiqishda ko'maklashish ega bo'lishi.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriyat ta'lism yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahsha qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lism yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashha qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lism yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishha qaratiladi;

pedagogik amaliyot – pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Yakka xonanda, ansambl xonandasini, o'qituvchi.

"Cholg'u sozlarini o'rghanish" fanini yuqori darajada o'zlashtirgan bitiruvchiga o'rgangan cholg'usining nomi qavs ichida ko'rsatiladi.)

2.3.2. 60211400 - Vokal san'ati (An'anaviy xonandalik) ta'lif yo'naliishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lif shakli uchun fanlarga ajratiladigan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	6300	210
Tanlov fanlar	360	12
Malakaviy amaliyot	390	13
Bitiruv malakaviy ishi	150	5
JAMI:	7200	240

2.3.3. 60211400 - Vokal san'ati (An'anaviy xonandalik) ta'lif yo'naliishi bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodи	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	6300	210	
1.01	MYX1820	Maqom yakka xonandaligi	600	20	1-8
1.02	AS1852	Ansambl sinfi (an'anaviy xonandalik)	1560	52	1-8
1.03	XKN1102	Xalq kuylarini notalashtrish	60	2	5
1.04	MXU1205	Maqom xonandaligi uslubiyoti	150	5	7-8
1.05	AIU1205	Ansambl ijrochiligi uslubiyoti	150	5	7-8
1.06	MTG'P1205	Maqom turkumidagi g'azallar poetikasi	150	5	5-6
1.07	SM1205	Sahna madaniyati	150	5	7-8
1.08	FT1410	Fors tili	300	10	1-4
1.09	CHSO'1305	Cholg'u sozлarmi o'rganish	150	5	1-3
1.10	JMT 1205	Jahon musiqasi tarixi	150	5	1-2
1.11	O'MT1410	O'zbek musiqasi tarixi	300	10	1-4
1.12	O'BI1205	O'zbek bastakorlik ijodiyoti	150	5	5-6
1.13	SHXMT1205	Sharq xalqlari musiqasi tarixi	150	5	5-6
1.14	XMI1205	Xalq musiqa ijodiyoti	150	5	3-4
1.15	S.MS.1306	Solfedjio. Maqom solfedjio	180	6	1-3
1.16	GYA1205	Garmoniya	150	5	4-5
1.17	MAT1205	Musiqqa asarlari tahlili	150	5	6-7
1.18	FNO1202	Fortepiano	60	2	1-2
1.19	AM1205	Aruz va musiqa	150	5	1-2
1.20	SHPA1205	Shashmaqom parda (lad) asoslari	150	5	4-5
1.21	MA1512	Maqom asoslari (maqomlar tahlili)	360	12	3-7
1.22	MPP1205	Musiqiy pedagogika va psixologiya	150	5	7-8
1.23	KP1105	Kasbiy pedagogika	150	5	8
1.24	ATM1102	Axborot texnologiyalarida musiqani matematik modellashtirish	60	2	6
1.25	OYQ1205	Ovozni yo'lga qo'yish	150	5	1-2
1.26	SN1102	Sahna nutqi	60	2	6
1.27	DNK1204	Dinshunoslik	120	4	3-4
1.28	FFA1204	Falsafa	120	4	7-8
1.29	O'YT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1-2
2.00		Tanlov fanlar	360	12	3-8
		Jami	6660	222	
		Malakaviy amaliyot	390	13	2,4,6,8
		Bitiruv malakaviy ishi	150	5	8
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalaviratning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyat, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlar bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, ijrochi-ijodkorlik, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
60211400 - Vokal san'ati (An'anaviy xonandalik) ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka
talablari va o'quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif muassasalari va
asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” 2023 yil

Biz quyidagi imzo chekuvchilar—O'zbek milliy maqom san'ati markazi direktori S.Begmatov, O'zbekiston davlat konservatoriysi rektori K.Urinbayev, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti rektori O.Nazarbekov birqalikda Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lif yo'naliishing malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60211400 - Vokal san'ati (An'anaviy xonandalik) ta'lif yo'naliishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-sen farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sen, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5131-sen, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sen, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019-2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4369-sen Qarorlariga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbek milliy maqom san'ati
markazi direktori**



S.Begmatov

**O'zbekiston davlat
konservatoriysi rektori**



K.Urinbayev


**Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek
milliy musiqa san'ati instituti rektori**



O.Nazarbekov

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar istemolchilari
ISHLAB CHIQILGAN:

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musaqa san'ati instituti

Rektor  O.A.Nazarbekov

2023 yil « 14 » 08



M.O.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor

Sh.U.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti

Rektor.y.v.b

E.O'.Shermanov

2023 yil « 15 » 08




O'zbekiston kompozitorlari va
bastakorlari uyushmasi

Rais

R.A.Abdullayev

2023 yil « 17 » 08

M.O.



O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat va turizm vazirligi
“Ta'lim va ilm fanni rivojlantirish
boshqarmasi”

Boshqarma boshlig'i

KADRLOV
BOSHQARMASI

M.O.

2023 yil « 15 » 08

N.K.Kasimov



O'zbekiston davlat konservatoriysi

Rektor

K.T.Urinbayev

M.O.



O'zbek milliy maqom san'ati
markazi

Direktor

S.M.Begmatov

2023 yil « 17 » 08.

M.O.

